

YOSHLARDA MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Xolmirzayeva Jumagul Xamdammovna
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
FarDU mustaqil izlanuvchisi
Tel: +998993692386

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21272568>

Annotatsiya: Maqolada yoshlarda mehnat madaniyatini shakllantirishning zamonaviy va innovatsion usullari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, virtual treninglar, onlayn mentorlik va geymifikatsiya orqali yoshlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, mehnat madaniyati va kasb madaniyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada ta'lim muassasalari va tashkilotlarda ushbu madaniyatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ham keltirilgan. Natijada, yoshlarning raqobatbardoshligini oshirish, ijtimoiy faolligini kuchaytirish va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: mehnat madaniyati, kasb madaniyati, yoshlar, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, mentorlik, geymifikatsiya, ta'lim, rivojlanish, jamoaviy ish, samaradorlik, raqobatbardoshlik.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda yoshlarning mehnat madaniyatini yuksaltirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Globallashtirish va raqamli texnologiyalar rivoji sharoitida kasbiy ko'nikmalar bilan bir qatorda, mehnatga ongli munosabat, intizom va jamoaviy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mehnat madaniyati shaxsning kasbiy faoliyatdagi samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, yoshlarda mehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning innovatsion usullarini joriy etish, ularni zamonaviy talablarga mos yetuk mutaxassis etib tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifasidir.

METODLAR

Tadqiqotda tahlil, taqqoslash, kuzatish, so'rovnomalar, intervyu, modellashtirish, tizimli yondashuv, statistik tahlil hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali yoshlarda mehnat madaniyatini shakllantirish va uning samaradorligini baholash imkoniyati yaratildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amaliy ko'nikmalarni yuqori sifatda shakllantirish uchun virtual muhitda treninglar tashkil etish, muvazinsiz vaziyatlarni simulyatsiya qilish yordamida xodimlarning muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish kabi usullar kasb madaniyatini takomillashtirishda juda samaralidir nazarimizda. Bunda **kommunikatsiya va jamoaviy ishlash** zarur. Yoshlarga kattalar tomonidan yordam va maslahatlar berish uchun onlayn mentorlik platformalarini joriy etish, mentorlik jarayonida fikr almashish va malakani oshirish uchun raqamli vositalardan foydalanish yuqori natijalarga olib keladi. Mehnat sifatini va intizomini monitoring qilish uchun axborot tizimlarini joriy qilish, sun'iy intellekt yordamida xodimlarning ish jarayonidagi xatolarini aniqlash va ularni qisqa muddatda bartaraf etish uchun **tasodifiy va sistemali baholash** usuli ham yuqori natijalarga sabab bo'ladi. Mehnat

madaniyatini shakllantirish uchun ish jarayonida o'yin elementlarini joriy etish (misol uchun, vazifalarni bajarish uchun ochkolar va sovrinlar tizimi) yoshlarning qiziqishini oshirish va ishga faol ishtirok etishini rag'batlantirishda samarali hisoblanadi. Bunda **kasbiy rivojlanish, mas'uliyat va ishonch** yanada ortadi. Har bir malaka yoki kasbiy ko'nikma uchun qisqa, aniq va maqsadga yo'naltirilgan mikrokurslar tashkil etish zarur. Bu kurslar orqali yoshlar o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab borishlari mumkin. Xalqaro darajadagi mutaxassislar bilan onlayn hamkorlik qilish **innovatsion rivojlanish, karera rivoji va ma'naviy o'sish**ga olib kelishi mumkin. Bu orqali esa, kasb madaniyati va mehnat madaniyatini oshiriladi. O'z navbatida bu yoshlarga xalqaro tajriba va innovatsion usullarni o'rganish imkonini beradi.

Mehnat madaniyati, asosan, yuqori professional etika, jamoadagi munosabatlar, ishga bo'lgan munosabat, kompaniya muhitini va undagi moslashuvchanlikni o'z ichiga oladi. Kasb madaniyati esa, mutaxassisning kasbiy qobiliyatlari, bilimlar va malakalarini rivojlantirishni qamrab oladi. Uyg'unlikning ahamiyati:

- mehnat madaniyati yuqori bo'lgan jamoalarda konfliktlar kam uchraydi, bu esa yoshlarga kasbiy harakatlarini samarali bajarish imkonini yaratadi. Bugungi kunda "yurtimizda "davlat – inson uchun" degan g'oya asosida xalq bilan bevosita muloqot qilish, uning dard-u tashvishlari, muammolarini ijobiy hal etish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilgan. Davlat tashkilotlari faoliyatida "mahallalar kesimida ishlash", "xalq ichiga kirish", uning "dardiga quloq solish", "tashvishiga sherik bo'lish" va "muammolarni joyida hal etish" kabi muhim vazifalar hal qiluvchi mezon sifatida qaror topgan, haqiqiy ma'noda xalqning ovozi tinglana boshlanib, davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlari kengaygan". [4; 43]

Yoshlarning mehnat madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullari qatoriga ijodkorlik va tashabbusni rag'batlantirish, xakatonlar orqali jalb qilish, mentorlik, fikr-mulohazalar, yetakchilikni rivojlantirish va o'zaro funktsional hamkorlikka qaratilgan o'quv dasturlari, shuningdek, sodiqlikni kuchaytiruvchi ijtimoiy tashabbuslar ham muhimdir. Bundan tashqari, ishga qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish, qulaylik va vaqtni tejash uchun onlayn intervyu va treninglar o'tkazish, shuningdek, yangi kelganlar va tajribali xodimlar o'rtasidagi to'siqni kamaytirish, motivatsiya, faollik va mahoratni oshirish uchun ish jarayoniga o'yin elementlarini kiritish mumkin

Ta'kidlash joizki, yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun tajribali hamkasblarni tayinlash, ishlash va rivojlanishni yaxshilash uchun muntazam fikr-mulohazalarni taqdim etish, yosh xodimlarga jamoa yig'ilishlariga rahbarlik qilish yoki yangi vazifalarni bajarish imkoniyatini berish, ularning etakchilik qobiliyatlari va tegishlilik hissini rivojlantirish, ijodiy fikrlashni, muammolarni hal qilishni va intensiv kasbiy mahoratni rivojlantirishni rag'batlantiradigan tadbirlarni tashkil etish va salomatlik va faol hayot tarzi bilan bog'liq tadbirlarga jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

Fikrimizcha yoshlarda mehnat madaniyatini yuksaltirish oqibatida istiqbolda ko'plab natijalarga erishiladi. Jumladan, ish samaradorligining oshishi kuzatiladi. Bunda mehnat madaniyati yuqori bo'lgan yoshlar ish jarayonida samarali va mas'uliyatli bo'ladilar. Bu tashkilotning iqtisodiy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy rivojlanish va yangi malaka egallanadi. Mehnat madaniyatini shakllantirgan yoshlar o'z kasbiy salohiyatlarini tezroq oshiradilar. Yanada murakkab vazifalarni bajarishga tayyor bo'ladilar. Jamoada hamkorlikni kuchaytiradi. Jamoada ishlash madaniyati rivojlanib, ish muhiti yoqimli va samarali bo'ladi.

Nizolar kamayadi va ishonch muhiti yaratiladi. Global raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishiga erishiladi. Mehnat madaniyati yuqori bo'lgan yoshlar xalqaro bozorda ham talab qilinadigan mutaxassislarga aylanadi. Bu mamlakatning mehnat bozori va iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi Jamiyat va davlat taraqqiyotiga hissa qo'shiladi. Mehnat madaniyati shakllangan yoshlar faol, mas'uliyatli va davlat g'oyalarini qo'llovchi fuqarolar bo'ladilar. Bu barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, yoshlarda mehnat madaniyatini yuksaltirish - bu nafaqat ularning shaxsiy va kasbiy rivoji, balki butun jamiyatning farovonligi va iqtisodiy o'sishi uchun muhim omildir.

A.L. Kravchenkoning "Raqamli jamiyatdagi kelajak mehnati va mehnat" deb nomlangan tadqiqotida yozilishicha raqamli jamiyatda mehnatni rivojlantirish tendentsiyalari va istiqbollari belgilaydi. Ushbu istiqbollarni ijobiy va salbiyga bo'lish kerak. Ijobiy tendentsiyalar, birinchi navbatda, axborot texnologiyalari orqali mehnat natijalarini, kasbiy malakani oshirish imkoniyatini o'z ichiga oladi, ammo bu ko'p jihatdan o'z raqobatbardoshligini saqlab qolish talabi bilan bog'liq. Ikkinchidan, zamonaviy aloqa vositalari xodimlarga mehnat faoliyatini tezroq bajarish, sanoat davriga nisbatan katta hajmdagi ishlarni bajarish va masofadan turib ishlash imkonini beradi" [3; 22-24]

Ushbu fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mehnat madaniyati rivojlangan yosh mutaxassis yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga tayyor bo'ladi. Ular yangi g'oyalar, startaplar va innovatsion yechimlar yaratishda faol ishtirok etishadi. Ma'naviy va ijtimoiy mas'uliyat hissi katta bo'lgan mutaxassislar ta'lim, fan va sanoatda yetakchi bo'ladi. Istiqbolda esa raqamli iqtisodiyot, intellektual mehnat va startap muhiti rivojlanadi. Mehnat madaniyatini o'zida mujassam etgan yosh mutaxassis jamoada faol, samimiy va tashkilotchi bo'ladi. Bunday yoshlar kelajakda rahbarlik salohiyatiga ega kadrlar bo'lib yetishadi. Istiqbolda esa, halol va to'g'ri yetakchilar tarbiyalanadi, korporativ madaniyat yuksaladi.

Mehnat madaniyati yuksak bo'lgan yoshlar xorijiy ish bozorida ham talabga ega bo'ladi. Ular xalqaro standartlarga mos ravishda faoliyat yuritish qobiliyatiga ega bo'ladi. Natijada Yangi O'zbekistondan chiqqan mutaxassislar xalqaro kompaniyalarda faoliyat olib borishi mumkin. Mehnat madaniyatini yosh avlodda shakllantirish va yuksaltirish - bu jamiyatning, iqtisodiyotning va davlatning barqaror kelajagini yaratish demakdir. Bunday madaniyatga ega kadrlar nafaqat yaxshi ishlaydilar, balki o'z jamiyatini rivojlantiradigan, vataniga foyda keltiradigan faol fuqarolar bo'ladi.

Yosh mutahassislar faoliyati va mehnat madaniyatini yuksaltirish uchun ularga ustozlik qilish tizimini yo'lga qo'yish, mentorlar yoshlarga o'z tajribasini, bilimlarini va ko'nikmalarini o'rgatishlari zarur. "Ustoz-shogird" an'anasi hamkorlikning eng kamida uchta subyekti: shogird, ustoz va ish bergan tashkilot manfaatlarini ifoda etadi. "Yosh mutaxassis bilimlar oladi, malaka va ko'nikmalarini, o'z kasbiy darajasi, qobiliyatini oshiradi, kasbiy (malakaviy) rivojlanadi, ustoz butun adaptatsion muhit bilan konstruktiv munosabatlar qurishni o'rganadi, o'zi ishlayotgan soha, tizim, tashkilot haqida axborotga ega bo'ladi. Bu orqali tashkilot kadrlar tayyorlashning madaniy va kasbiy darajasini yaxshilaydi, hamkasblar o'rtasidagi munosabatlar ochiqlashadi". [1; 78] Maxsus seminarlar, treninglar va kurslar tashkil qilish, zamonaviy nazariy va amaliy ko'nikmalarni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar yoshlarning kasbiy faoliyatini yuksaltirishga yordam beradi. Zero "Bugungi kundagi asosiy vazifa ... yosh avlodni

millatning dardiga darmon bo'ladigan, elim deb, yurtim deb yonib yashovchi, mamlakatimizning yuksak parvozigacha zo'r qanot bo'luvchi komil inson qilib tarbiyalashdan iborat". [5; 83-84]

Mehnat madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yana boshqa omillar sifatida xatolar va muammolardan o'rganishda aniq strategiyalar berish zarur. Ularning faoliyatida sodir bo'lgan xatolarni tahlil qilish va ulardan saboq olishi muhimdir. Yoshlarda tadbirkorlik fikrini rivojlantirish, ularga yangi sohalarda ishlash imkoniyatlarini berishimiz ma'naviy tarbiya masalasiga e'tibor qaratishimiz zarur. Alohida qayd etish joiz "biz xalqimizni dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi farzandlarimizni bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashlari uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni yo'qotsak bu o'ta muhim ishni o'z holiga o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan tarixiy xotiramizdan ayrilib oxir oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin". [2; 4]

Yuqorida keltirilgan tavsiyalar yoshlarning faolligini oshirish, ularning kasb madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shundan kelib chiqib, mehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha quyidagilar taklif etiladi; Oliy ta'lim muassasalarida **kasbiy rivojlanish** uchun kasbiy fanlar va amaliy treninglarning o'tgan nazariy dasturlarini takomillashtirish, mehnat madaniyatiga oid alohida darslar yoki seminarlar tashkil etish zarur. Yoshlar uchun professional rivojlanish kurslari, master-klasslar va treninglar tashkil qilish zarur. Bunda **kommunikatsiya va jamoaviy ishlashga** alohida e'tibor berish kerak. Tajribali mutaxassislar bilan mentorlik dasturini amalga oshirish yaxshi samara beradi. Kompaniyalarda yaxshi korporativ madaniyatni rivojlantirish uchun to'g'ri siyosat va qoidalarni yaratish, **axloqiy normalar va qoidalar**, ish joyida ta'rif va rag'batlantirish va me'yori mehnat muhitini yaratish yaxshi samara beradi. Rag'batlantirish tizimini joriy etish, korporativ etika kodeksini qabul qilib, moliyaviy va notijorat bo'lmagan tashkilotlarda **mas'uliyat va ishonch, tasodifiy va sistemali baholash**, mehnat madaniyati bo'yicha standartlarni yaratish va ularga amal qilish katta ahamiyatga ega. Texnologik vositalarni ishlatish, OAV, internet va ijtimoiy tarmoqlarni mehnat madaniyatini rivojlantirish uchun foydalanish, **kommunikatsiya va jamoaviy ishlash** to'g'ri bo'ladi. Mehnat muhitini yaxshilash uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish, bu orqali **innovatsion rivojlanish**, oilada mehnat madaniyatini shakllantirish hamda yoshlarning mehnatga munosabatini yangilash, jamiyatdagi faoliyatlarda ishtirok etish jamiyat taraqqiyotiga amaliy ta'sir ko'rsatadi. Ko'ngillilik va jamoatchilik ishlariga jalb etish, mehnat muhiti hamda madaniyatini muntazam monitoring qilish, oqibatlarni ularga ta'sir etuvchi omillarga asosan baholash va boshqalar yoshlar mehnat madaniyatining yuksalishiga tizim sifatida imkon yaratadi. Ushbu takliflar va tavsiyalar mehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. Tashkilotlar va jamiyatlar mehnat madaniyati rivojlanishiga katta hissa qo'sha oladilar.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mehnat madaniyatini yuksaltirishda uchun samarali faoliyat olib borish, transformatsiya jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, mehnat muhitini yaxshilash, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, oilada mehnat madaniyatini

rivojlantirish, yoshlarning mehnatga munosabatini yangilash muhim o'rin tutadi. Kasb madaniyatini rivojlantirish esa yoshlarda mehnat madaniyatini yanada yuksaltirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida insonlar o'rtasidagi o'zaro tushunmovchiliklarni oldini olish bilan birga mehnat samaradorligini oshishiga olib keladi. Mehnat madaniyatining yuksalishi mehnatga nisbatan noto'g'ri yondashuvlarni to'xtadi va sog'lom turmush tarzining mustahkamlanishiga olib keladi. Sog'lom turmush tarzining mustahkamlanishi jamiyat va davlat taraqqiyoti va insoniyat rivojiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Деҳқонова М. Устоз шогирд тизими асосида талабаларни методик тайёрлаш механизмлари. // Сирдарё педагогик маҳорат маркази. Халқаро конференция материаллари. 2024. - Б.78.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б.4.
3. Кравченко А.Л. Трансформация труда в цифровом обществе: социально-философский анализ. Автореферат диссертации по философии. Москва: Дубна ГУ. 2025, С.22-24.
4. Норбоева Т. Шахс, жамият ва давлат манфаатлари уйғунлиги акс этган бош қомус // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2023. №2. –Б.43.
5. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълими стандарти ва ўқув дастури. Т.: Шарқ, 1999. 2-сон. -Б. 83-84.